



TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILAR BILIMINI NAZORAT QILISH MAVZULARNI O'ZLASHTIRISHIDA HOT POTATOES DASTURIDAN FOYDALANISH

Axchaboyev Quvonchbek Xayrullo o'g'li

Andijon davlat Pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi fakulteti Ta'limda axborot texnologiyalari yo'nalishi

2-kurs magistranti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7882497>

ARTICLE INFO

Received: 23th April 2023

Accepted: 29th April 2023

Online: 30th April 2023

KEY WORDS

ABSTRACT

Mazkur maqolamizda daqiqa sayin rivojlanib borayotgan texnologiyalar va texnika asrida zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan biri bo'lgan HotPotatoes dasturidan ta'lim jarayonida foydalanish, mazkur dasturning asosiy va kerakli bo'limlarida ishlash jarayonlari yoritib berilgan.

O'quv jarayonini takomillashtirish yo'llaridan biri – uni intensivlashtirish hisoblanadi. Bu degani yangi o'quv usullariga o'tish, zamonaviy texnik vositalaridan foydalangan holda katta hajmdagi axborotlarni o'zlashtirishdir. Grafoproektor, kadaskoplar yordamida o'quv jarayonlarini namoyish qiluvchi didkatik materiallarni ishlab chiqish zarur. shuningdek o'quv jarayonida sxemalar, jadvallar, diagrammalardan foydalanish o'rganilayotgan ma'ruza materiallariga tayanch hisoblanadi hamda o'quvchilarning umumiy madaniyatini oshirishga samarali ta'sir etadi.

L.A.Kuznetsov o'zining O'rta maktabda informatika o'qitish usuliy tizimining rivojlanishi» mavzusidagi ma'ruza shaklidagi doktorlik dissertatsiyasida: «Informatika kursini o'qitish uslubiyotini takomillashtirishdagi muhim yo'nalishlardan biri bu o'quv predmeti bo'yicha yaxlit o'quv-uslubiy majmua (O'UM) ni yaratish hisoblanadi. Informatika kursi bo'yicha O'UMning alohida xususiyati shundaki, u o'z ichiga faqat darslik va uslubiy qo'llanmalar, o'qish uchun kitoblar tizimini emas, shuningdek, pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni va nihoyat, pedagogik dasturiy vositalarning o'zini ham qamrab oladi», - deb yozadi. Ta'limni kompyuterlashtirish muammosi pedagogika fanida taxminan yarim asr oldin pavo bo'lgan zamonaviy yo'nalish hisoblanadi.

Kompyuterli ta'limning markaziy muammosi sifatida mukammal pedagogik dasturiy vositalarining ilmiy asoslangan tizimini yaratish qaralishi lozim. I.Robertning yozishicha, sifatli pedagogik dasturiy vositalar asosida ta'limni kompyuterlashtirishning qator afzalliklari mavjud:

- o'quvchilarning interfaol holatda ishlashlari ta'minlanadi;
- foydalanuvchi va kompyuter o'rtasida uzluksiz teskari aloqa o'rnatiladi;
- o'rganilayotgan hodisalarni vizuallashtirishda model, grafik, chizma. jadvallardan unumli foydalaniladi;
- ekranda tasvirlanayotgan hodisalarni boshqarish osonlashadi;



- tahlil qilinayotgan narsa-hodisalar to'g'risida ma'lumotlarni qayd qilish.saqdash. qayta ishlash imkoniyatlari paydo bo'ladi;
- ta'lim jarayonini yakkama-yakkalashtirish yaxshilanadi;
- ta'limni tabaqalash uchung shart-sharoit yaratiladi;
- o'quvchilar o'zlashtirishini uzluksiz nazorat qilish imkoniyatlari oshadi;
- axborotlarni markaziy ma'lumotlar omborida saqlash va ulardan foydalanishning qulay yo'llari zudlik bilan tanlanadi;
- o'rganilayotgan axborotlarni puxta o'zlashtirish uchung ularga takroriy murojaat qilib turish yengillashadi;
- axborotlarga qayta ishlov berish jarayoni avtomatlashtiriladi .


Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, o'quvchilarni avvalo darsga jalb qilish, ularni e'tiborini boshlangan dars jarayoniga qaratish uchun o'qituvchi tomonidan darsga tayyorlanish mobaynida ishlab chiqadigan pedagogik texnologiyalari va vositalari turli xillik va ko'rgazmalilik kabi xususiyatlarga ega bo'lishi, ular yordamida o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash, ko'rib chiqish, tekshirish va yana yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga qiziqish uyg'onishini amallash lozim. Buning uchun esa bizga dars jarayonida o'yinlar va komputerlar asosida ta'limni tashkil etish yordam bera oladi.

«Informatika» kursini o'qitishning asosiy sabablaridan biri komputer texnikasi va texnologiyalaridan foydalangan holda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash si-fatini oshirish, o'quv jarayonini faollashtirish, o'quvchilar mehnatining natijaviyligi va samaradorligini oshirishdir.

Biz ham bo'lajak informatika o'qituvchilari sifatida yuqoridagi barcha fikrlarni asosiy maqsad qilib olishimiz kerak va zamonaviy dasturiy vositalar bilan ishlash va ular yordamida o'quvchilar bilimlarini oshirish va nazorat qilish malakalariga ega bo'lib borishimiz lozim.

Bularni barchasini inobatga olgan holda men bugun yana bir dasturiy vosita bo'lmish – "HotPotatoes6" dasturi yordamida o'quvchilarga bilim berish va olgan ma'lumotlarini qay darajada o'zlashtirganliklarini nazorat va tahlil qilish usullarini va dastur imkoniyatlarini qisqacha yoritib berishga harakat qilaman. Demak, dastlab dastur imkoniyatlari haqida ma'lumot beraman.


"HotPotatoes6" (ing. "QaynoqKartoshkalar") dasturini ishga tushirganimizda uning asosiy oynasi ochiladi va bu oyna sarlavha satri, menyular satri hamda olti xil imkoniyatlarga ega bo'lgan bo'limlardan tashkil topgan:



Aytaylik biz prezentatsiya ko`rinishida yangi bir mavzuni o`quvchilarga ma`ruzasini kerakli qismini yozdirib, asosiy tushunchalarini ularga tushuntirib bersak. Ularni bilim olish darajasi biz yaratgan prezentatsiyaning ko`rgazmalilik prinsiplari asosida hamda ham tinglab, ham ko`rib shu bilan birgalikda yozib borishlari yordamida oshib boradi. Endi biz o`quvchilar olgan tushuncha va bilimlarini qay darajada ekanligini tekshirishimiz va nazorat qilish uchun komputer yordamida yaratilgan dasturiy vositalar orqali quyidagicha ishlarni bajarishimiz mumkin bo`ladi:

JCloze dasturini olsak. Bu dastur bizga o`tilgan mavzu ma`ruzasi va undagi asosiy tushunchalarni qay darajada o`quvchilar yodida qolganini tekshirish imkonini beradi. Men esa bu dasturni malakaviy amaliyot davrida o`quvchilarga "Word dasturi imkoniyatlari" mavzusini o`tgan darsim mobaynida quyidagicha foydalandim:

Dastlab dasturning JCloze bo`limini ishga tushirib, uning asosiy oynasining "Имя" qatoriga mavzu nomini kiritaman va asosiy maydonga mavzu ma`ruzasini yoki asosiy tushunchalar berilgan qismlarini yashirib qo`yish uchun berkitib qo`yilayotgan so`zni yoki jumlani belgilab, "Пробел" tugmasini bosiladi va quyidagi oyna ochiladi:





Альтернативные слова

Пробел # 1

Слово ко'zdan kechirish

Определение dastur imkoniyatlaridan biri

Верные альтернативные ответы

1 ko'rib chiqish

2

3

OK ? Помощь

Bu oynada berkitib qo'yilayotgan so'zga uni topish uchun yashiringan so'zga yo'naltiruvchi so'z va turli shu so'zga yaqin to'g'ri javoblar kiritiladi va yo'naltiruvchi so'z berkitilgan so'zni topishda o'quvchiga ko'mak vazifasini bajaradi. Kalit so'zlar va to'g'ri keladigan javoblar kiritilib bo'lgach OK ni bosib oldingi oynaga qaytamiz. U yerdan "Файл" menyusining "Создать вебстраницу" buyrug'ini yoki F6 tugmasini bosish orqali yaratgan boshqotirmani browser yordamida oynaga boshqotirma ko'rinishida taqdim etaman. U yerdagi yashiringan so'zni topish uchun so'roq tugmasini bosiladi va kalit so'zlar uni yechishda o'quvchilarga yordam vazifasini bajaradi.

"Check" tugmasini bosish orqali esa o'quvchining bu topshiriqda qanday natija olganligini protsentlar orqali o'zlashtirish darajasini natijasini olishim mumkin.

Word dasturi va uning imkoniyatlari

Gap-fill exercise

Fill in all the gaps, then press "Check" to check your answers. Use the "Hint" button to get a free letter if an answer is giving you trouble. You can also click on the "[?]" button to get a clue. Note that you will lose points if you ask for hints or clues!

Kompyuterdan foydalanuvchi ish jarayonida biror xujjatni tez va yuqori sifatida kirill yoki lotin alifbosiida tayyorlash hamda chop qilish zaruratiga ko'pincha duch keladi. Bunday vaziyatda u Microsoft firmasi tomonidan yaratilgan WORD dasturida ishlashni bilishi lozim.

MS WORD – bu matnli xujjatlarni tuzish, [?] dastur imkoniyatlaridan biri [?] zamonaviy matn muxarriridir.

MS WORD – matnli va [?] [?] ma'lumotlar ustida yuzdan ortiq operatsiyalarni bajarish uchun mo'ljallangan dasturlardan biri hisoblanadi.

MS WORD – yordamida ixtiyoriy ko'rinishdagi xujjatni juda tez va yuqori sifatida tayyorlash mumkin. Dasturning yana bir qulaylik tomoni shundan iboratki, unda bir nechta xujjatlar bilan, ya'ni ularni qo'shish, biridan ikkinchisiga kerakli joyini [?] [?] matn oldiga tasvir tushirish, jadval tashkil qilish, turli shriftlar bilan ishlash, xarflarni istalgan shaklda yetarlicha katta formatda chop etish mumkin. Lekin MS WORD – ayrim "kamchiliklar" dan ham holi emas.

Masalan: [?] [?] katta qiyinchiliklar mavjud. Bundan tashqari, juda murakkab strukturali poligrafik (atlaslar, albomlar va jurnal muqovalari) materiallarini tayyorlashda noqulaylik yuzaga keladi.

Word matn muxarriri imkoniyatlari.

-Matnni kiritish, [?] [?] va ko'zdan kechirish;

-Qator oralig'ini [?] ni o'rnatish;

-Avtomatik tarzda matnni saxifalarga bo'lish;


-Matn qismini ajratish va uni kerakli joyga muxsalash;

-Xujjat [?] [?] ni tuzish;


kabi yana bir turkum ishlarni bajarishi mumkin;

Check Hint


"JCross" bo'limida esa men shu mavzusiga oid tushunchalar, ta'riflar, dastur imkoniyatlari va vazifalari qatoriga kiruvchi so'zlardan krossvord tuzishim va o'quvchilarda uni yechish orqali nazorat o'tkazishim mumkin. Buning uchun dasturni bu bo'limini ishga tushiraman va quyidagi oyna paydo bo'ladi:




Krossvordni berkitilgan soʻzlarini kiritish uchun esa rasmda koʻrsatilgan “Создать сетку...” tugmasi bosiladi va bu oyna yordamida mavzuga oid boʻlgan soʻzlarni har birini alohida satrga yaʼni bir soʻzni kiritgandan soʻng “Enter” tugmasini bosib, soʻng keyingi soʻz kiritilishi davom ettiraman va yakunda “Создать сетку” ni bosaman.



Yuqorida rasmda koʻrib turganingizday men kiritgan soʻzlardan dastur krossvord koʻrinishini avtomatik tarzda tuzib qoʻydi. Endi meni vazifam ushbu krossvorddagi soʻzlarga kalit soʻzlar kiritish boʻladi. Buning uchun “Определения” tugmasini bosaman va u oynada har soʻzni satr va ustun koʻrinishda tasvirlangan raqamlariga kalit soʻzlar kiritib chiqaman. Buning uchun shu soʻzni ustida bir chertib, ostida paydo boʻlgan kalit soʻz kiritish maydoniga kalit soʻzlarni kiritaman va OK ni bosaman. Shu tarzda har soʻzga kalit soʻzlar kiritilib boriladi:



Barcha soʻzlarga kalit soʻzlar kiritilib boʻlgach oynaning ostki qismidagi OK ni bosaman va oldingi oynaga qaytaman. Oynaning “Файл” menyusining “Создать вебстраницу” buyrugʻini yoki F6 tugmasini bosish orqali yaratgan krossvordimni brouzer yordamida oynaga boshqotirma koʻrinishida taqdim etaman:



Uni yechish uchun raqam ustiga bir bosiladi va kalit soʻz yordamida javob topiladi.

“JQuiz” boʻlimi yordamida esa men nazorat turini TEST koʻrinishidagi dasturiy vosita bilan oʻquvchilarni oʻtilgan mavzu yuzasidan olgan bilimlarini oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini olishim mumkin. Dasturni ushbu boʻlimi ishga tushgandan soʻng uning asosiy oynasi ochiladi. Oynaning nom kiritish qatoriga mavzu nomini, ostidagi maydonga esa savolni kiritiladi. Javoblar maydonlariga esa variantlar va toʻgʻri javob kiritilib, savolning aniq javobi toʻgʻrisiga belgilashni qoʻyaman:



JQuiz: [Без названия]

Файл Редактировать Вставить Управление вопросами Выбор Помощь

Имя Word dasturi va uning imkoniyatlari

B 1 Matn protsessorlarining matn muharrirlaridan asosiy

Альтернативный вы

	Ответы	Комментарии	Настройки
A	matni bezatish imkoniyatlari mavjudligida		☒ Верно
B	shriftlarda		☐ Верно
C	farqi yo`q		☐ Верно
D	to`g`ri javob berilmagan		☐ Верно

Конфигурация: english6.cfg

Keyin esa qolgan savollarni kiritish uchun rasmdagi "B" belgisi oldidagi 1 (1-savol degani) ni yuritgichlari orqali 2- savolni kiritish uchun uni ko`rsatkichini 2 ga o`zgartiraman:

JQuiz: [Без названия]

Файл Редактировать Вставить Управление вопросами Выбор Помощь

Имя Word dasturi va uning imkoniyatlari

B 2 Wordda tayyorlangan hujjatni diskda saqlab qo`yish uchun qaysi menyu amallaridan foydalaniladi?

Альтернативный вы

	Ответы	Комментарии	Настройки
A	Tahrir (Правка)		☐ Верно
B	Fayl (Файл)		☒ Верно
C	Korinish (Вид)		☐ Верно
D	Servis (Сервис)		☐ Верно

Конфигурация: english6.cfg

Word dasturi va uning imkoniyatlari

Quiz

Your score is 100%.
Questions completed so far: 1/10.

1 / 10

Matn protsessorlarining matn muharrirlaridan asosiy farqi?

A. matni bezatish imkoniyatlari mavjudligida

B. shriftlarda


C. farqi yo`q

D. to`g`ri javob berilmagan

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, перейдите к параметрам компьютера.




Shu tariqa TEST savollari birin – ketin kiritib boriladi. Bu bosqichlar tugagandan so`ng esa yuqoridagi kabi ushbu TEST ko`rinishiga keltirilgan dasturiy vositamizni brouzer yordamida oynaga chiqarish uchun F6 tugmasini bosaman. Shuni aytishim lozimki F6 tugmasini bosganimizda muloqot oynasi paydo bo`ladi va yaratilgan ilova dasturni saqlash va nom berishingizni so`raydi. Siz u yerga nom bergan holda o`zingizga ma`qul diskka saqlaganizdan so`ng yana bir oyna ochiladi. Bu oynada sizga uni hozir brouzer yordamida namoyish etishni hohlaysizmi degan savol paydo bo`ladi va siz OK ni bossangiz brouzer yordamida ochib beradi:




Rasmda ko`rib turganingizday yaratilgan TEST ni faqat bittadan namoyish qilish holati turibdi. Barcha TEST savollari va variantlarini ko`rish uchun esa “Show all questions” tugmasi bosiladi. Siz variantlardan birini tanlashingiz bilan javobingiz necha protsent to`g`riligini va bilim darajani aniqlash mumkin.

“JMatch” bo`limi yordamida esa yana bir dars jarayonida qo`llash mumkin bo`lgan sinov – nazorat o`tkazish uchun yordam bera oladigan dasturiy vosita yaratishimiz mumkin. Bunda o`quvchi tomonidan ikki qimga bo`lingan va bir – birini to`ldiruvchi tushunchalar yoki ta`riflarni ajratib, chalkashtirilgan holda keltiriladi. O`quvchi tomonidan ushbu ikki qismga bo`lingan gaplarni mosini mos qismiga birlashtirish talab etiladi. Ushbu dasturiy ilovani yaratish uchun “JMatch” bo`limini ishga tushiramiz va yuqoridagi kabi nom qismiga sinov nomini, keyin esa oynaning ikki qismga bo`lingan qismlariga gap va tushunchalarni qismlarga bo`lgan holda kiritaman. Masalan, word dasturidagi issiq tugmachalar va ularning vazifalari mavzusini olsam. Oynaning chap qismiga issiq tugmachalarni kiritib, o`ng tomoniga esa ularning vazifalarini kiritib chiqaman. Oynaning metka bo`limining belgi qo`yish joyiga esa belgi qo`yganimga sababi, men birinchi bu boshqotirmani yechayotgan o`quvchi uchun misol tariqasida uni yechish na`munasini oynada ko`rsatib qo`ymoqchiman. Buni esa brouzer yordamida dasturni ishga tushirganimizda guvohi bo`lasiz.





Ko'rib turganingizday bunda ikki qismga bo'lingan ta'riflar oynada ko'rinib turadi va ularning chap tomonda turgan qismlari joyidan jilmaydi. Shuning uchun o'ng tomondagi mos gapni chap tomondagi mos qismiga "sudrab" olib borilish orqali bu topshiriqni bajarish davom ettiriladi va yakunda "Check" tugmasi bosilib, natijalar ko'rsatkichi aniqlanadi.



"JMIX" bo'limi esa bizga ko'pincha fonetikaga oid fanlarda, ya'ni ona tili, rus tili, ingliz tili va shu kabi fanlarda ko'p samara bersa ajab emas. Chunki bu bo'lim yordamida biz bir butun gaplarni so'zlarini o'rni almashgan, ketma – ketligi buzilgan holda taqdim etishimiz va ularni ketma – ketligini o'quvchilar to'g'rilab chiqishi lozimligini topshiriq qilib berishimiz mumkin. Dasturni bu bo'limi ishga tushgandan so'ng uning nom berish maydoniga nom yozilib, "Основное предложение" maydoniga har bir chalkash holatga keltiriladigan so'z yoki so'z birikmalari ketma – ketligi bilan ajratilib, ya'ni har bo'lakdan so'ng Enter tugmasi bosilib kiritiladi. "Альтернативные" maydonlariga esa to'g'ri javobga yaqin va mos keladigan bo'lgan javoblar ko'rinishlarini ham kiritish mumkin:

Endi esa brouzerda ko'rish uchun esa F6 tugmasini bosamiz:



[Index](#) =>

Word dasturi menyulari vazifalari
Mixed-up sentence exercise

Put the parts in order to form a sentence. When you think your answer is correct, click on "Check" to check your answer. If you get stuck, click on "Hint" to find out the next correct part.

joylashgan hujjat nomi , sarlavha satri- dastur yorlig'i, oynani boshqarish tugmachalari dastur nomi,

[Index](#) =>

So'zlarni ketma – ketligi bo'yicha yozib chiqish uchun o'quvchi har so'zni navbati kelganda sichqonchani uni ustida bosishi kifoya. Agar oldingi oynaga qaytib, boshqa ko'rinishda topshiriqni tasvirlamoqchi bo'lsak, CTRL+F6 ni bosamiz:

[Index](#) =>

Word dasturi menyulari vazifalari
Mixed-up sentence exercise

Put the parts in order to form a sentence. When you think your answer is correct, click on "Check" to check your answer. If you get stuck, click on "Hint" to find out the next correct part.

Bu ko'rinishdagi topshiriqni bajarish uchun so'zlarni ketma – ketligi tartibida ularni sichqonchani bosib, qo'yib yubormagan holda "sudrab" yo'l – yo'l chiziqlarga joylashtiriladi:

[Index](#) =>

Word dasturi menyulari vazifalari
Mixed-up sentence exercise

Put the parts in order to form a sentence. When you think your answer is correct, click on "Check" to check your answer. If you get stuck, click on "Hint" to find out the next correct part.

Yuqoridagilar kabi "Check" tugmasini bosib natijani baholaymiz:

sarlavha satri- dastur yorlig'i, hujjat nomi , dastur nomi, oynani boshqarish tugmachalari joylashgan

Correct!
Your score is 100%.

Men yuqorida "HotPotatoes" dasturi yordamida o'qituvchi dars jarayonida foydalanilgan ta'lim texnologiyalarining samarasini, o'tilgan mavzu yuzasidan olgan o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashni, nazorat olib borishning usullarini oddiy va sodda ko'rinishlarini ko'rsatib o'tdim. Bu dasturiy vositalarini informatika fanlarida qo'llash esa o'quvchilarda komputer bilan, klaviatura bilan, dasturlar bilan ishlashda malakalarini oshirishga ham



xizmat qilsa, bir tomondan o`qituvchini va o`quvchilarni vaqtini ko`p qismini nazorat qilishga sarflamasligiga ham ko`maklashadi. Shu bilan birgalikda bu darsga o`quvchilarda qiziqish uyg`otishi va dars samaradorligini oshirishda katta xizmat qiladi.

References:

1. Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyalari. Ma'ruza matnlari. V.Jo'rayev.
2. Bovtenko M.A. Metodicheskie materialy k kursu "Kompyuternaya lingvo didaktika". Rekomendatsii po sozdaniyu interaktivnix uprajneniy s pomoshyu universalnoy programmi-obolochki "HotPotatoes" (Versiya 6.0. 1998 - 2003) (dlya nachinayushix polzovateley). - Novosibirsk, 2004.
3. <http://dasturim.uz>